

Hozirgi davrda mehnat huquqining ijtimoiy funktsiyasi

Farg'ona davlat universiteti

Huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

M.M.Abduvaliyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Mehnat huquqining ijtimoiy funktsiyasi" kontsepsiyasining qo'shimcha huquqiy jihati mehnat munosabatlarini va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa munosabatlarni huquqiy tartibga solishni rivojlantirish kabi masalalar muhokama qilingan.

Ma'lumki, har qanay huquq tarmog'ining tavsifini uning funksiyalari orqali anglash mumkin. Aynan huquq tarmog'ining funktsiyasi uning asosiy mohiyatini, jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini ochib beradi.

Mehnat huquqining funksiyalari mamlakatimiz yuridik fanida alohida o'rganilish predmeti hisoblanadi. Ilmiy ishlarda, qoida tariqasida, ularning kontsepsiyasini aniqlashga, tasniflash mezonini ishlab chiqishga va funktsiyalar tizimini aniqlashga harakat qilinadi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar mehnat huquqining funksiyalari uchun bir xil nomlardan foydalanganda, ular ko'pincha bir xil narsani anglatmaydi.

Boshqa omillar bilan bir qatorda, mehnat huquqi funksiyalari amalga oshirilishi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorligiga va jamiyatning holatiga ta'sir qiladi.

Ijtimoiy sherikchilik rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, mehnat huquqining funksiyalari qatorida ijtimoiy funktsiyaning ahamiyati beqiyosdir.

Ijtimoiy funktsiya – mazkur funktsiya mehnat qonunchiligi normalarini butun jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan yaratilishi va qo'llanilishini nazarda tutadi. Bu funktsiya bandlik va ishga joylash, mehnatning erkinligi prinsipini va u bilan bog'liq huquqlarni ta'minlash, ish vaqti davomiyligini cheklanishini ta'minlash, mehnatga haq to'lash, kompensatsiyalarni to'lash, xavfsiz mehnat sharoitlarini, mehnat

muhofazasini va boshqalarni o'z ichiga qamrab oladi.¹

Ushbu funksiyalarning ro'li shundan iboratki, jamiyatda shakllangan va huquqiy tartibga solish uchun jamiyat talabi bo'lgan munosabatlarni mustahkamlash, shuningdek, davlat manfaatlarini hisobga olgan holda xodim va ish beruvchining manfaatlarini maqbul muvofiqlashtirish muammosini hal qilishga qaratilgan mehnatdan foydalanishning yangi shakllarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 42-moddasida har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanih huquqiga ega. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi deb ko'rsatilib o'tilgan.² Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va boshqa qonun hujjatlarda ham mehnat huquqining ijtimoiy funksiyalarini tartibga soluvchi normal zamon talablariga moslanmoqda.

Mehnat va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa munosabatlar sohasidagi ijtimoiy barqarorlik, ideal holda ijtimoiy adolat mehnat huquqining ijtimoiy funksiyasini amalga oshirishning alohida yo'nalishi ekanligi isbotlangan, chunki ijtimoiy funktsiya boshqa sohalarda (ish haqi, xavfsiz mehnat sharoitlari, bandlik, ijtimoiy kafolatlar, imtiyozlar va kompensatsiyalar) samarali amalga oshirilgandagina erishish mumkin.³

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida individual mehnat munosabatlarida tomonlar o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari mavjud, qonun chiqaruvchi organ tomonidan bunday imkoniyatni belgilashdan maqsad

¹ B.T. Musayev, K.R. Aliyeva, B.A.Narimanov. Mehnat huquqi. Darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2020. – 282 bet

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023 yil. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son

³ Зорина, Ольга Олеговна. Социальная функция трудового права на современном этапе. Москва. 2017

xodimni ish beruvchining kuchidan himoya qilish va taraflar o'rtasidagi o'zaro kelishuv asosida muayyan masalalarni tartibga solish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023 yil. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son
2. B.T. Musayev, K.R. Aliyeva, B.A.Narimanov. Mehnat huquqi. Darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2020. – 282 bet
3. Зорина, Ольга Олеговна. Социальная функция трудового права на современном этапе. Москва. 2017